



MEHNAT MIGRATSIYASINING AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI, UNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Umarova Gulandom

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ORCID: 0009-0001-1752-1166

gulandom.u1983@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada migratsiya tushunchasiga ta'rif berilgan. Aholi migratsiyasi unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, O'zbekistondagi migratsion jarayonlar statistik tahlil etilgan. Aholi mehnat migratsiyasini tartibga solish chora-tadbirlar yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, xorij davlatlarning migratsion jarayonlarni tartibga solishga bevosita ta'sir etuvchi usullari o'rganilib, bu sohada jahon tajribasi tahlil qilingan. Migratsiya va bandlik sohasidagi ishchi kuchi transformatsiyasining o'zaro aloqadorlik jihatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, aholi, migrant, ishchi kuchi, demografik yuk, hudud, mehnat resurslari, geografik egiluvchanlik, mintaqaviy ixtisoslashuv, tabiiy sharoit, ishlab chiqarish, jahon xo'jaligi, mehnat migratsiyasi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В ПОВЫШЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ, А ТАКЖЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ЕЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ

Умарова Гуландом

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В данной статье дано определение понятию миграция. Изучены факторы, влияющие на миграцию населения, и статистически проанализированы миграционные процессы в Узбекистане. Разработаны направления мер по регулированию трудовой миграции населения. Также были изучены методы, непосредственно влияющие на регулирование миграционных процессов в зарубежных странах, и проанализирован мировой опыт в этой области. Изучены аспекты взаимосвязи трансформации рабочей силы в сфере миграции и занятости.

Ключевые слова: миграция, население, migrant, рабочая сила, демографическая нагрузка, территория, трудовые ресурсы, географическая гибкость, региональная специализация, природные условия, производство, мировое хозяйство, трудовая миграция.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LABOR MIGRATION IN INCREASING EMPLOYMENT, AND DIRECTIONS FOR IMPROVING ITS REGULATION MECHANISMS

Umarova Gulandom

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. *This article defines the concept of migration. It examines the factors influencing population migration and provides a statistical analysis of migration processes in Uzbekistan. Directions for measures to regulate labor migration are also developed. Furthermore, the article studies the methods used by foreign countries to directly influence the regulation of migration processes and analyzes global experience in this field. The interrelationship of labor force transformation in the context of migration and employment is also explored.*

Keywords: *migration, population, migrant, labor force, demographic burden, territory, labor resources, geographical flexibility, regional specialization, natural conditions, production, world economy, labor migration.*

Kirish.

Migratsiya kishilarning o'z doimiy yashash joyini doimiy yoki uzoqroq muddatga ma'muriy chegarani kesib o'tgan holda o'zgartirish hisoblanib, keng qamrovli va murakab jarayon sanaladi.

Aholi migratsiyasi qator omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu omillarni shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy, ijtimoiy va ekologik turlarga ajratish mumkin. Mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlari bilan bog'liq, makoniy ko'chib yurishi mehnat migratsiyasini tashkil qiladi. Ishlab chiqarishning chegarasi va unga muvofiq ravishda ish haqi baravarlashmas ekan, mehnat migratsiyasi mavjud bo'lavradi deyishimiz mumkin.

Mehnat resurslarining mamlakatlararo ko'chib yurish tartibining erkinlashuvi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanalib, har qanday mamlakat ham ijtimoiy taraqqiyotning hamda ushbu mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalariga to'liq qo'shilib ketishining bevosita sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi rivojlanishining barcha bosqichlarida mehnat migratsiyasi jarayoni yuz bergan va iqtisodiy adabiyotlarda bu jarayonga doir konsepsiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Jumladan, tadqiqotchilar tomonidan mehnat migratsiyaining yuzaga kelishi va amalga oshirilish jarayoni xaqidagi birqancha fikrlarni keltirib o'tish mumkin. Iqtisodchi olim Xiks (1963) 1932-yilda o'zining birinchi "Ish haqi nazariyasi" ("Theory of wages") asarida migratsiya jarayonini tahlil qilib uning yuzaga kelishining asosiy omili sifatida ish haqidagi farqni ko'rsatib o'tgan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Xalqaro Migratsiya Tashkilotlari tomonidan mehnat migrantlariga "...aholining o'zi istiqomat qiladigan mamlakat miqiyosida yoki ruxsat etiladigan davlatga ko'chib o'tib iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan qism" (Евдокимов, 2004) deya ta'rif berilgan.

Lukas, Romer kabilar xalqaro fikricha xalqaro iqtisodiy migratsiyani tahlil qilib "xalqaro iqtisodiy migratsiya mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi farqlar natijasidir" (Эренберг ва Смит, 1996) degan xulosaga kelganlar. Iqtisodiy sikllarning teskari bog'liqligi nazariyasi vakillari (Tomas va boshqalar)ning fikricha, mamlakatdan mamlakatga mehnat migratsiyasining yo'nalishi iqtisodiy rivojlanishning siklik fazalarining teskari o'zgarishi bilan belgilanishi aytilgan (Ионцева, 2007). Rossiyalik olim Tryukanova (1996) tomonidan esa mamlakatning rivojlanish darajasi ortishi bilan birga migrantlarning sifat ko'rsatkichlari,

salohiyati, malaka, ko'nikma tarkibining kengayib borishini kuzatish mumkinligi tadqiq qilingan.

Xalqaro mehnat almashinuvi bo'yicha mutaxassis, rus iqtisodchisi Yanovskiy (2001) tomonidan mehnat migranti o'zini va oilasini moddiy jihatdan ta'minlaydi, demak, mamlakat boyiydi, sohasi buyicha o'zini malakali deb hisoblaydi yoki mehnat bozorida (o'z yurtida va horijda) talab qilinadigan u yoki bu mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tadi, mamlakatning soliqqa tortiladigan bazasini kengayishi ta'kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Aholi bandligini oshirishda ichki va tashqi mehnat migratsiyasining ahamiyati yoritilib, mehnat migratsiyasini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari jadval usulida yoritib berilgan. Shuningdek, mavzuni yoritishda ilmiy mushohada, analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish usullaridan keng foydalanilib, mazkur usullar olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, ular asosida kerakli xulosalar chiqarish imkonini oshirgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Migratsion jarayonlar natijasida nafaqat aholi soni tarkibi, balki mehnat resurslarining shakllanishida ham o'zgarishlar ro'y beradi.

O'zbekiston Respublikadagi migratsiya jarayonlari dinamikasini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak migratsiya qoldig'i 1970-yillarning ikkinchi yarmiga qadar musbatligi bilan ajralib turadi. Bu davrda mintaqada migrantlarga yaratilgan keng huquqiy va iqtisodiy imtiyozlar respublikaga ko'chib keluvchilar oqimini tezlashtirgan. Natijada 1950-1974-yillarda O'zbekistonda migratsiya qoldig'i musbat ya'ni +832,5 mingga teng bo'lgan. Biroq, undan keyingi davrda aholining mexanik harakatida o'zgarishlar yuz berib, u migrantlarning tarkibi, hajmi, ayniqsa, ko'chib keluvchilarga nisbatan ketuvchilarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. 1950-1979-yillar aholi soni hamda mehnat resurslari tarkibida migratsiyaning ulushi 2,5-3,7 foizga teng bo'lgan. Ammo, 1980-yildan boshlab aholi dinamikasida uning roli salbiylashib borgan. Jumladan, 1980-1989 - yillarda -17,4 promell, 1990-1999 - yillarda esa yillar davomidagi eng yuqori ko'rsatkich - 31,0 promellga to'g'ri kelishi aholining umumiy sonining qisqarishiga sabab bo'lgan, bu ko'rsatkichlar 2000-2009 - yillarga kelib - 24,3 promellni, 2010-2023 - yillar -18,3 promellni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholisining o'sishi va uning asosiy omillari (ming kishi hisobida)

Yillar	Umumiy o'sish	Tabiiy ko'payish	Migratsion ko'payish	Aholi o'sishi (promell)	
				Tabiiy ko'payish	Migratsiya
1951-1960	2201,0	2119,6	81,4	96,3	4,7
1961-1969	3404,0	3320,0	84,0	97,5	2,5
1970-1979	3958,0	3817,0	141,0	96,4	3,6
1980-1989	4015,0	4715,4	-700,4	117,4	-17,4
1990-1999	3913,6	5102,4	-687,6	121,7	-31,0
2000-2009	3045,7	4256,1	-742,4	113,3	-24,3
2010-2023	8024,6	7697,5	-344,1	243,1	-18,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, migratsiya saldosi 1980-yildan boshlab manfiy tomonga o'zgargan. Migratsiya manfiy qoldig'ining katta bo'lishi ishsizlikning ortib

borish davrida birmuncha ijobiy xol hisoblansada, ammo bu hududning kasb-mahoratga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni yo'qotishga, ichki migratsiyada esa migrantlarning harakati malakali mutaxassislarning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bu jarayon hududning mintaqaviy ixtisoslashuvi va sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga bog'liq holda amalga oshadi.

Migratsiya oqimlari hududning ishlab chiqarish salohiyati bilan bir qatorda aholi joylashuviga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Zero, aholining biror mintaqada to'planishi aholi zichligini ortib borishiga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yerlar, ayniqsa, sug'oriladigan maydonlarning qisqarishiga, bandlik muammosi va hududlar o'rtasida tafovutning vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovut bu bevosita aholi daromadi va turmush darajasiga ham ta'sir etadi. Natijada ichki migratsiyasi yuz beradi, ya'ni aholi iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududdan, yaxshiroq rivojlangan ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan hududga ko'chib o'ta boshlaydi. Bu o'z navbatida aholining iqtisodiy nochor hududlardan yaxshi rivojlangan hududlarga oqib o'tishini cheklash, tartibga solish chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Chunki, migratsiya migrantlar ko'chib ketgan hudud uchun ham ular ko'chib kelgan mamlakat fuqarolari uchun ham noxush vaziyatlarni vujudga keltirishi mumkin. Bu ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muommosini hal qilish va ma'lum ma'noda aholi migratsiyasini tartibga solish chora tadbirlarini amalga oshirish talabini yuzaga keltiradi. Bu vaziyatda, aholi mehnat migratsiyasini tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

Migratsion jarayonlarni tartibga solish chora-tadbirlari

T/r	Hududlar holati	Amalga oshirilish mehanizmi
1	Yangi o'zlashtirilayotgan	Yangi o'zlashtirilayotgan, istiqbolli hududlarga ko'chib boruvchilar uchun qo'shimcha imtiyozlar, ijtimoiy kafolatlar belgilash, joriy qilish;
2	Iqtisodiy ijtimoiy nochor (qoloq)	Qoloq hududlardan aholining chiqib ketishini to'xtatish uchun ularga ham qo'shimcha imtiyoz va rag'batlar berish
3	Nisbatan barqaror rivojlanishga ega	Turli hududlardan ko'chib kelgan migrantlarni ish bilan ta'minlash, ishga joylashtirish bilan bog'liq muommolarni hal qilish

Jadvalni tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, bunday chora tadbirlarni amalga oshirish hududlar aholisining barqarorligini va rivojlanishini ta'minlaydi. Chunki, respublikada keyingi yillardagi aholining migratsion harakatlari ularning nisbatan sanoatlashgan shaharlarga va yaqin horijiy mamlakatlarga ish izlab borishlari bilan asoslanadi. Respublikaning Toshkent, Samarqand, Farg'ona Navoyi viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi migratsion harakatlari sur'ati boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori. Statistik ma'lumotlariga ko'ra aholi migratsion harakati yuqori bo'lgan hududlarning tabiiy va demografik sharoitlari murakkab ko'rinishga ega, mehnat bozori nisbatan bosimli holatda, ya'ni demografik yukning mavjudligi oqibatida yuz bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidagi (2020) nutqida ta'kidlaganidek, "... asosiy ishchi kuchi yashaydigan va ish o'rinlari yaratilayotgan hududlarimiz o'rtasida tafovut mavjud. Buning yechimi-ichki migratsiyani erkinlashtirishdan iborat". Bu malakali ishchi kuchini ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida ichki migratsiyani rag'batlantirish, geografik egiluvchanlikni oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga bog'liq. Geografik egiluvchanlik ish bilan bandlikni yuqori darajada bo'lishiga, texnologik o'zgarishlarga tezkor moslashishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga, mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirishga, mehnat

faoliyatiga yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruh qatlamlari uchun ham ish o'rinlarini saqlab qolish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun ayni vaqtda tashkil etilgan mehnat migratsiyasi bo'yicha asosiy hamkorlar Koreya Respublikasi, Rossiya davlati bo'lib qolmoqda. Shuni ham aytish mumkinki, hozirgi vaqtda O'zbekistonlik mehnat migrantlari Rossiyaning deyarli barcha hududlarida o'z mehnat faoliyatlarini amalga oshirmoqda. Ularning soni 2000-yil 6,1 ming kishidan 2008-yil 344,6 kishiga ya'ni 56,5 martaga oshgan. Huddi mana shu yillarda O'zbekistonda migrantlar pul o'tkazmalari oqimining dinamikasi 3,8 marta oshgan (IMF, 2007), 2022-yilda esa migrantlar 1454475 kishiga ularning pul o'tkazmalari 16 milliard \$ga yetgan (WB, 2023). Rossiya davlatidagi jami mehnat migrantlarining 42 foizini o'zbeklar tashkil etadi. O'zbekistonlik jami mehnat migrantlar yo'nalishining 61,5 foizi Rossiya davlatiga to'g'ri keladi (Statistika qo'mitasi, n.d.).

Shuningdek, migrantlarning 16,9 foizi Qozog'iston, 6,1 foiz Turkiya, 2 foiz Janubiy Koreya 0,8 foiz BAA davlatlariga to'g'ri kelib, mavjud 2 million 356 ming mehnat migrantlarning 75,9 foizi erkaklar hamda 24,1 foizi ayollardan iboratligi statistik ma'lumotlarda keltirilgan (visualcapitalist.com, n.d.).

Jahon banki ma'lumotlarida ko'ra Rossiya pul o'tkazmalarining eng yirik manbai O'zbekiston bo'lib umumiy pul o'tkazmalarining qariyb 80 foizi shu davlatga to'g'ri kelishi aytib o'tilgan (visualcapitalist.com, n.d.). Mamlakat bu borada Markaziy Osiyoda mutlaq yetakchi hisoblanib, dunyoda 15-o'rinni egallaydi. Qo'shni davlatlarga yuborilgan pul o'tkazmalari bilan taqqoslaganda ancha ko'proqni tashkil etishi ko'zga tashlanadi. Masalan, yil davomida tojikistonlik migrantlar o'z oilalariga 3,2 mlrd dollar pul yuborgan bo'lsa, qirg'izistonliklarda bu ko'rsatkich 3,1 mlrd dollarni tashkil qilgan. Mehnat migrantlari tomonidan Qozog'iztonga 2022-yilda 370 mln dollar, Turkmanistonga esa atigi 1 mln dollar yuborilgan (WB, 2023).

O'zbekistondan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlariga ishlab kelish maqsadidagi migratsiya turi asosan Rossiyaga qaratilganlining sababalridan biri bu hozirgi paytda Rossiya davlatida aholining tabiiy ko'payish darajasining pastligi natijasida mintaqada ishchi kuchi etishmasligi bilan bevosita bog'liq desak yanglishmaymiz. Masalan, Rossiyada hozirgi kunda asosan o'zbekistonlik yuqori malakali quruvchilar, ishchilar brigada bo'lib ishlamoqda. Shu bilan bir qatorda Rossiyaga juda ko'plab nolegal ravishda (yashirincha) malakasi bo'lmagan "qora ishchilar" ham ketishmoqda, ular past narxda bo'lsa ham, turli-tuman ishlarni bajaradilar. Ularni, Rossiyaning shahar va qishloqdagi xususiy firmalar va davlat tashkilotlari ishga taklif qiladilar (yollaydilar).

Shuni ham aytib o'tish kerakki, O'zbekiston aholisining ma'lum bir qismi, davlat organlari bilan hech qanday kelishuvsiz va shartnomasiz, yashirin tarzda xorijiy mamlakatlardagi chet el firmalarida ishlamoqdalar. "Nolegallar" xorijiy mamlakatlarga ko'pchilik hollarda mehmon bo'lib yoki shaxsiy takliflar asosida, sayyoh sifatida boradilar. Sayyohlik muddati tugagandan keyin esa, o'sha yerdan ish topib noqonuniy asosda o'sha mamlakatda ishlashga qolmoqda.

O'zbekiston xalqaro mehnat bozorida teng huquqli sherik sifatida qatnashuvining mavjud imkoniyatlari faqat uning demografik ko'rsatkichlari, ya'ni aholining yuqori sur'atlarda o'sishi, mehnat resurslarining umumiy sonida yoshlar ulushining yuqoriligi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning ma'lumoti, saviya darajasi yuqoriligi bo'yicha ham ajralib turadi. Xorijdan ishchi kuchini qabul qilish ko'rsatkichlari O'zbekiston aholisining tashqi bandlik ko'rsatkichlaridan bir necha barobar kam. Asosan, Turkiya, Koreya Respublikasi, Xitoy va Markaziy Osiyodan O'zbekistonga ishlash uchun keladi.

Ayni vaqtda jahon iqtisodiyotida O'zbekistonning salmoqli o'rni bo'lishi hamda uning respublikada iqtisodiy-ijtimoiy istiqbolini ko'zlab rivojlangan mamlakatlarga fuqarolarni kasb o'rganib, ishlab kelishlarini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. usullarini yo'lga qo'yimoqda. Respublikaning xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarida faol ishtirok etishi

uning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bir qatorda yana bir qancha iqtisodiy afzalliklarga ega bo'lish imkonini ta'minlaydi.

Tadqiqotchi olim Ata-Mirzayev ham o'z tadqiqotlarida mamlakat yoshlarining qishloqdan shaharga, shahardan uzoq xorijiy davlatlarga vaqtinchalik borib kelish tendensiyasi o'sayotganligini avvalo daromad topish istagi, bilim olish, ish o'rganish, tajriba almashish ekanligini izohlaydi. Muallif fikricha mamlakatda mavjud bo'lgan yuqori mehnat salohiyatidan, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish uchun ushbu yo'nalish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq qilish lozim. Chunki, xorijda ishlab kelgan fuqarolar sifat jihatdan butunlay boshqa, ishbilarmonlik, tadbirkorlik xususiyatlariga, xalqaro ish tajribasi va o'z ishini boshlashda uchrashi mumkin bo'lgan dastlabki qiyinchiliklarini engalish qobiliyatiga ega bo'lish bilan birga, mamlakatga qaytib kelganlaridan so'ng o'z ishlarini tashkil qilib, birqancha yangi yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon beradi. Mahalliy ishchi kuchi bozorida ma'lum darajada talab va taklif muvozanatiga erishiladi. Ma'lumki, respublikadagi demografik vaziyat ichki bozorda ishchi kuchi taklifining o'sib borishiga muntazam ta'sir ko'rsatadi. Mehnat migrantlari olgan daromadlar o'zini va oilasini ta'minlash hamda respublikada ishsiz va kam ta'minlangan fuqarolar uchun belgilangan xarajatlarni kamaytirish orqali davlat ijtimoiy himoyasi hamda ta'minoti tizimiga bo'lgan bosimni pasaytirishga xizmat qiladi.

Respublika tashqi mehnat bozoriga chiqishi uchun tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha davlat siyosatining asoslarini ishlab chiqilishi hamda bu siyosatni huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy tomondan ta'minlanishi kerak. Unda davlatning ushbu sohadagi tamoyil va maqsadlari, vazifalari, tashqi mehnat migratsiyasini tashkil qilish mexanizmi, ushbu jarayonlarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ta'sir va nazorat qilish choralari aniq ifodalanishi lozim.

Har bir davlat mehnat migratsiyasi bo'yicha siyosatini ishlab chiqishda bu jarayonga turlicha yondoshadi va o'z mamlakatiga mos keluvchi mezonlarni hisobga oladi. Jumladan, mehnat migrantlarining mamlakatlararo ko'chib yurishi va uning kuchayib borishi qonuniyatlarini inkor etmaydigan salbiy tomonlarini ham ko'zda tutadi. Shuning uchun ko'p davlatlar bu jarayonga bevosita ta'sir etishning an'anaviy usullari hisoblangan kvotalash, litsenziyalash va turli xil ma'muriy rasmiyatchiliklar o'rnatish usullaridan keng foydalanadilar. Misol uchun, AQShlarida mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalar bilan ko'pgina federal organlar shug'ullanib, davlat departamentidagi mahsus byuro kirish vizalarining tartibini o'rnatar, ularni hisobga olar ekan. Adliya vazirligidagi naturalizatsiya va immigratsiya xizmati chet elliklarning mamlakatga kirishi va ma'lum vaqt yashab turishining xuquqiy rejimini nazorat qilar, mehnat vazirligi tomonidan immigrantlarning amerika iqtisodi uchun ortiqcha yuk bo'lishi bo'lmasligi, biror amerikalikning ish o'rnidan ajralish ehtimoli bor yo'qligini aniqlar, shundan so'ng immigratsiya va naturalizatsiya xizmati tomonidan barcha vaziyatlar o'rganib chiqilgandan so'ng immigrantning mamlakatda yashashi uchun ruxsat berilar ekan (Rasulova, 2009).

Respublikada tashqi mehnat migratsiyasi masalalasi va ularni tashkil etish jarayonida xorijiy ish beruvchilarni izlash, ular bilan hamkorlik olib borishda bevosita davlatning har tomonlama ko'magi va faol ishtirok etishi talab qilinadi.

Bu sohadagi jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasini yo'lga qo'yish faqatgina bir vazirlik miqyosida emas, balki muqobil tarzda xususiy va xorijiy agentliklar, firmalar ishtirokida raqobat asosida tegishli davlat idoralarining ko'magi va nazorati o'rnatilgan holdagina samarali natija beradi.

Shu o'rinda xorijiy davlatlarga mehnat migratsiyasini amalga oshirish «aqli boshlar chiqib ketishi»ni keltirib chiqarmasmikan, degan savol tug'ilishi tabiiy, respublikaga ko'proq ichki «aqli boshlardan mahrum bo'lish» jarayoni xosdir, chunki aksariyat hollarda yuqori malakali kadrlar fandan faoliyatning boshqa sohalariga o'tib ketishi «aqli boshlarning chiqib ketishi» (xoh ichki yoki tashqi bo'lsin) mamlakatda ko'ngilsiz tarkibiy o'zgarishlarga, fan taraqqiyotining pasayishiga, ilmiy kadrlarning qarishiga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat migratsiyasini legallashtirib, mehnat resurslarini jahon bozoriga eksport qilinishini ta'minlanishi respublikaning mehnat bozoriga bo'lgan bosimini kamaytiradi.

Aholining tashqi mehnat migratsiyasida qatnashib, ichki mehnat bozorida keskinlikni kamaytirishi, jumladan, tashqi mehnat migratsiyasi orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilish, ishchi kuchining malaka jihatidan xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini ta'minlashi, ishlab chiqarish omillarining samaradorligini oshirishi, mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyali tarmoqlarida va unga turdosh nou-xau ishlarida tajriba malaka orttirib o'z vatanlariga qaytishlari, milliy ishlab chiqarishning innovatsion samaradorligining o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratishi mumkin, bu albatta ijobiy hol hisoblanadi. Ammo mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, bu avvala chet elda ishlayotgan fuqarolarning ijtimoiy muhofazasidagi kamchiliklarda, obro'siz, kam xaq to'lanadigan ishlarga ham rozi bo'lishida ko'rinadi. Iqtisodiy jihatdan ish bilan bandlikning qisqarishi, qurilish, qayta ishlash sanoati, moliyaviy sektor, chakana savdo, turizm kabi sohalarda yaqqol namoyon bo'lishi, ushbu tarmoqlarda band bo'lgan migrantlar vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Migratsiya bilan bandlik sohasidagi ishchi kuchi transformatsiyasining o'zaro aloqador jihatlari mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish;

xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, mavjud korxonalarni kengaytirish;

kasanachilikni rivojlantirish;

qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish;

shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish.

Bu ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muommosini hal qilish va ma'lum ma'noda aholi migratsiyasini tartibga solish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat migratsiyasini tartibga solishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi qonunchilik ba'zasini takomillashtirish,

migratsiya to'g'risidagi va fuqarolarning mehnat migratsiyasi to'g'risida qonunlarni ishlab chiqish,

tashqi mehnat migratsiyasi monitoringini takomillashtirish,

fuqarolarning tashqi mehnat migratsiyasi sabab va maqsadlarini, yo'nalish va migratsion maylini, chuqurlashtirilgan holda o'rganish, bunga doir sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish bunda e'tiborni noqonuniy migratsiya va uni keltirib chiqaradigan sabablarga qaratish lozim.

Ushbu xulosa va tavsiyalarni amalda tadbiq etish respublika mehnat migratsiyasi borasidagi muammolarni hal etishga ko'mak berishi, mehnat migratsiyasi aholi bandligini ta'minlash hamda iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish omili bo'lishiga xizmat qilishi mumkin. Oqilona boshqariladigan migratsiya milliy jamg'armalarni ko'paytirishni rag'batlantira olsa, iqtisodiyotning yanada yuksalishiga olib keladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Hicks, J.R. & Litt, M.A. (1963). *The theory of wages*. Toronto, 381 p. (319–321).

IMF (2007). *Balance of Payments Statistics, August 2007*. World Bank (2008). *World Development Indicators Database, October 2008*. Экономическое обозрение. Москва, №3, 50 с.

Isroilova, D.K. (2021). *Mehnati migratsiyasi-iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil sifatida*. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №6 (noyabr-dekabr), 243-248 b.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 25-yanvar. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
- Rasulova, D. (2009). Mehnat migratsiyasi: jahon tajribasi. Jamiyat va boshqaruv, №1, 69 b.
- stat.uz (n.d.) O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
- visualcapitalist.com (n.d.) Visual Capitalist. Remittance flows GDP impact by country. <https://www.visualcapitalist.com/cp/remittance-flows-gdp-impact-by-country/>
- World Bank Group (2023). Leveraging Diaspora Finances for Private Capital Mobilization. Migration and Development Brief 39, December 2023. KNOMAD, p.30.
- Евдокимов, А.И. (2004). Международное экономики отношения. Учебник. Москва: Проспект, 480 с.
- Ионцева, В.А. (2007). Экономика народонаселения: Учебник. Москва: ИНФРА-М, 668 с. (438).
- Трюканова, Е. (1996). Глобализация международной миграции, роль женщин. Миграция женщин из России, еще одна «стратегия успеха». Москва, 84–102 б.
- Эренберг, Р.Дж. & Смит, Р.С. (1996). Современная экономика труда. Теория и государственная практика. Москва: МГУ, 451 с. (438, 367).
- Яновский, Ю.А. (2001). Международный Конгресс "Евразия: занятость в XXI веке". Международный семинар по трудовой миграции. Москва.